

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.Inoyatova</b>	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar .....	207
<b>U.Qurbonov</b>	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari .....	212
<b>G.Ravshanova</b>	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari .....	216
<b>O.O'roqova</b>	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
<b>F.Rabbimova</b>	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar .....	222
<b>D.Axmedova</b>	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari .....	226
<b>N.Sabirov</b>	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari .....	231
<b>Sh.Murtozayev</b>	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari .....	240
<b>A.A.Tojaliyev</b>	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti .....	245
<b>A.A.Abdumalikov</b>	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari .....	249
<b>O'.X.Rajabov</b>	
"Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati .....	253
	SIYOSAT
<b>M.U.Jo'rayev</b>	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish .....	258
<b>A.Xudayberdiyev</b>	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
<b>O.Majidov</b>	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari .....	268
<b>M.U.Jo'rayev</b>	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari .....	273
<b>Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod</b>	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi .....	279
<b>J.Sh.Museyibzada</b>	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil .....	285
	TARIH
<b>I.G'ulomov</b>	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
<b>U.O'sarov</b>	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli .....	297
<b>F.Utayeva, B.Safarov</b>	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati .....	303
<b>A.Usmonov</b>	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar .....	308
<b>A.Yarkulov</b>	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari .....	314
<b>B.Usmanov</b>	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

**SHARQ ROMANTIZMINING ESTETIK XUSUSIYATLARI**  
**ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ЧЕРТЫ ВОСТОЧНОГО РОМАНТИЗМА**  
**AESTHETIC FEATURES OF EASTERN ROMANTICISM**

**O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna

– Andijon davlat tibbiyot instituti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, dotsent.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Sharq romantizm estetikasining o'ziga xos xususiyatlari ifodalangan bo'lib, Sharq romantizmining mazmuni – ideallik, ya'ni Haqiqat, Kuch va Tinchlik g'alaba qozonadigan hayotdir. Haqiqat va Tinchlikka erishish uchun Sharq romantizmining ijtimoiy negizlari aynan shu voqelikning ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Xususan Sharq romantizmi nafaqat muayyan tarixiy hodisa, balki dunyoni bilishda o'ziga xos uslub va an'ana ekanligidan dalolat beradi.*

**Аннотация**

*В данной статье выражены специфические черты эстетики восточного романтизма, а сущностью восточного романтизма является идеальность, то есть жизнь, в которой господствуют Истина, Сила и Мир. Для достижения Истины и Мира социальные основы восточного романтизма выступили как выражение этой реальности. В частности, показано, что восточный романтизм является не только конкретным историческим событием, но и уникальным стилем и традицией в познании мира.*

**Abstract**

*In this article, the specific features of Eastern Romanticism aesthetics are expressed, and the essence of Eastern Romanticism is ideality, that is, a life in which Truth, Power and Peace prevail. In order to achieve Truth and Peace, the social foundations of Eastern romanticism appeared as an expression of this reality. In particular, it shows that Eastern romanticism is not only a specific historical event, but also a unique style and tradition in knowing the world.*

**Kalit so'zlar:** Sharq romantizmi, estetika, moddiy madaniyat, go'zallik, ijtimoiy xayot, uyg'unlik, badiiy adabiyot, folklor.

**Ключевые слова:** Восточный романтизм, эстетика, материальная культура, красота, социальная жизнь, гармония, художественная литература, фольклор.

**Key words:** Oriental romanticism, aesthetics, material culture, beauty, social life, harmony, fiction, folklore.

**KIRISH**

Romantizm hayotni estetik bilishga qaratilgan badiiy metod sifatida insoniyat madaniyatining butun taraqqiyoti davomida shakllangan. Romantizm uslub sifatida olamni anglashda qahramonlik haqidagi xalq dostonlari, ertak va g'ayrioddiy hikoyalarda, voqelikka nisbatan turli munosabat, jamiyat va inson shaxsining noyobligi, uning va tabiatning yaxlitligi, inson qalbi falsafasi va tasvirlanadigan mavzularni ideallashtirishda namoyon bo'lgan.

Romantizmni aniqlashtirishda voqelikka – predmetsiz, voqea-hodisaga esa mohiyatsiz qaralgan, ya'ni romantizm ma'lum bir badiiy anglash usuli emas, balki ba'zi alomatlar yig'indisi sifatida talqin etilgan. Bu usul ushbu atamani to'liq anglashga emas, balki avvaldan belgilangan hodisalar doirasini belgilashga xizmat qiladi.

Sharq romantizmiga falsafiy-estetik hodisa sifatida to'laqonli ta'rif berish uchun hech bo'lmaganda O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining badiiy-estetik va ijtimoiy-axloqiy tajribalarini umumlashtirgan ilg'or falsafiy qarashlarni, qisqacha bo'lsa-da, ko'rib chiqish muhim. Umumiy yo'nalishida g'oyaviy xarakter kasb etgan O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining falsafiy-estetik tafakkuri juda chuqur ratsional g'oyalar hamda nizom va qoidalarga ega, ular esa, o'z navbatida, Sharq romantizmi estetikasida gumanistik tendentsiyalar qaror topishida katta rol o'ynagan.

Sharq romantizmi Yevropa romantizmiga o'xshash ko'plab jihatlari bilan birga, o'ziga xos murakkab xususiyatlariga ham ega. Yevropa romantizmining yorqin namoyon bo'lishi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga to'g'ri kelsa, Sharq romantizmi yanada qadimiyroq ildizlarga ega. Islom dini qaror topguniga qadar mavjud bo'lgan ma'naviy obida va devoriy suratlar, shuningdek Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va boshqa shoirlarning o'lmas asarlari, xususan Sharq romantizmi

nafaqat muayyan tarixiy hodisa, balki dunyoni bilishdagi o'ziga xos uslub va an'ana ekanligidan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda romantizm estetikasiga doir, shu ma'noda, romantizm san'at nazariyasi va tarixi, adabiyot, tarix, arxeologiya sohalarining taniqli vakillaridan bo'lgan O.Bozorov, X.Boltaboev, E.Gyul, V.Zaxidov, L.A.Islomova, H.Karamatov, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, E.Rustamov, R.Shodiev, A.Hakimov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Romantizm vakillari xalq she'riyatiga, ayniqsa o'rta asrlar va qadimgi davr merosiga juda qiziqqanlar. Barcha buyuk romantiklar ertaknamo sarguzashtlarni izlaganlar, o'z xalqlarining folklori, ertak va afsonalarini tahlil qilish bilan birga, Sharq she'riyatiga ham e'tibor qaratganlar. Bayron, Shelli, Gyote, Tik, Gyugo, Pushkin, Lermontov kabi mashhur adiblar "Ming bir kecha" ertaklari bilan tanish bo'lganlar hamda o'z asarlarida Sharq she'riyati va folkloridan olingan syujetlardan unumli foydalanganlar. Misol uchun romantizmning folklorga munosabatini olaylik. Har qanday millat romantizmi har qanday davrda o'zgacha yo'l bilan milliy ijod sarchashmasidan suv simirgan. Umuman olganda, romantizmning o'ziga xos jihatlaridan biri uning folklor materialiga yoki folklor ifodasiga tayanishi yoki folklor estetik bilish xususiyatidan foydalanishidir.

### NATIJA VA MUXOKAMA

Agar romantizmning folklor, mifologiya bilan bog'liqligi aniq bo'lsa va og'zaki folklor, mifologiya oddiy insonlarning, mehnatkash odamning fazilatlarini, xalq qahramonlarining go'zalligini hamda roli va ahamiyatini yanada oshirsa, romantik ijodkor nima uchun alohida shaxslar, afsonaviy qahramonlarni ko'paytirishga intilishi tushunarli. Folklorida hukmron sinf hayot tarzi va faoliyatining aks etishi romantizmda faqat hukmron sinf hayotining aks etishini bildirmaydi, balki estetik evolyutsiya davrlariga xos haqiqatni badiiy ifodalash determinantlashganidan dalolat beradi.

Romantik ijodkorlarga g'aroyib ertaksimon olam, xayolot va hissiyot og'ushi, ideal hayotga intilish va uning orzulariga singish, chuqur lirizm va axloqiy shu'la, estetik rohatni izzat qilish, hayotni falsafiy idrok etish hamda Sharq she'riyati va san'atining yuksak insonparvarligi ruhan yaqin bo'lgan. Shu sababli Sharq dunyoqarashi va estetik idealini tushunib yetish uchun ular Sharq folklori va Sharq asotirlaridan syujetlar olganlar, hatto ko'p hollarda bunday "Sharq asotirlarini" o'zlari yaratib, G'arb yo'siniga aylantirganlar. Romantiklar o'rta asrlar Sharq olamiga eshik ochganlar. Ularning ketidan Sharq va uning tarixi, madaniyatining o'ziga xosligi nafaqat rassomlarning, balki tarixchi, faylasuf va sharqshunoslarning ham diqqatini tortgan. Shu ma'noda H.Boltaboev va M.Mahkam to'g'ri aytganlaridek, "adabiyotshunoslik o'z metodologik asoslarini umumestetik mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish davriga kirdi.

Adabiy hodisalarni baholash va ilmiy xulosalarga kelishda jahon adabiyotshunosligi tajribasida sinalgan akademik maktab va kontseptsiyalarning ahamiyati katta. Hozirgi kunda adabiy-badiiy matn, ijodiy jarayon va ijod psixologiyasi kabi muammolarni psixoanalitik, intuitiv va struktural metodlar yordamisiz hal etib bo'lmaydi" .[1-7]

Belinskiy ushbu fikrini davom ettirib, shunday yozgan: "Asotirlar xalqlar romantik hayotining eng muhim dalilidir. Sharq asotirlarida biz hali na go'zallik idealini, na ayol idealini topamiz. Barcha afsonalar asosan bitta hissiyotni — shahvatparastlikni, bitta g'oyani — tabiatning abadiy mahsuldorligini ifoda etadi". [ 2-146]

V.G.Belinskiy sharqona romantizmni tasniflashda, shubhasiz, biryozlamalik va kemptiklikka yo'l qo'ygan. Belinskiy Sharq ijodkorlari va yozuvchilarining estetik tamoyillari va tarixi bilan tanish bo'lmagan. U Sharqqa mushohadali tahlil ko'zi bilan qaragan, Sharq olami badiiy jozibadorligining ta'mini totgan, biroq uning borlig'iga kira olmagan. Shuning uchun u sharqona she'riyatning o'ziga xos jihatlarini va estetik ideal masalalarini tub-tubigacha anglab yetmagan. U faqat hissiy hirs, odamlar o'zaro munosabatlarining tabiiy namoyon bo'lishini ko'rsatish bilan cheklangan.

Ammo muhabbat hamisha inson go'zalligi, ayniqsa, ayol nazokati va Sharqdagi estetik ideal insoniyat badiiy dahosi namoyon bo'lishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan. Estetik ideal, asarlarning obrazli va g'oyaviy tuzilishi, Sharq she'riyatining estetik tamoyillari nafaqat romantizmning barcha turlariga xos umumiy jihatlariga ega bo'lgan, balki ularning axloqiy-estetik belgilari va o'ziga xos koloriti bilan ham farq qilgan. Romantizmni tushunishda biz uchun V.G.Belinskiyning tarixiylik muhimdir. Uning fikricha, bu hodisa har doim barcha xalqlarga xosdir.

Yunon romantizmini Sharq bilan qiyosiy o'rgangan Belinskiy qadimgi Ellada romantizmining quyidagi belgilarini qayd etadi: "Yunonistonda sevgi allaqachon rivojlanishning eng yuqori pallasida bo'lgan: u yerda sevgi go'zallik g'oyasi bilan ilhomlangan hissiy intilishdir. U yerda afsonaviy

## FALSAFA

ongning ilk pallasida dunyo hayotining umumiy mohiyati bo'lgan sevgi timsoli — Eros paydo bo'lishi bilan darhol ayol nafasatining timsoli bo'lgan Afrodita tug'iladi. Afrodita, sevgi emas, balki go'zallik ma'budasi bo'lgan" [2-147]. Binobarin, "yunon ayol go'zalligini yaxshi ko'radi, go'zallik esa muhabbat va moyillikni tug'diradi" [2-147.] "Yunonlar nazarida, — deb xulosa qiladi Belinskiy, — romantizmning mohiyati nafis jilvaga burkangan rohatdir" [2-147]

Yu.Borev ta'kidlaganidek, "romantizm san'ati metaforali, assotsiativ, ko'p ma'noli bo'lib, janrlar, turlarning sintezi yoki o'zaro ta'siriga, shuningdek falsafa va din bilan bog'liqlikka intiladi. Romantik tafakkurga istehzo, kinoya, grotesk va fantastika xosdir" [2-368] Sharq romantizmining dunyoqarash muammosini hamda ijtimoiy, mafkuraviy negizlarini aynan ana shu ko'p ma'noli hayot oqimidan, inson va jamiyat muammolaridan, ijodkorning xayoli va qalbidan izlash zarur. Sharq romantizmi — yozilgan uslub emas. Unga adabiyot, san'at, din, falsafa va estetik tafakkurning jumboqli va murakkab zaxiralarida o'rin egallagan chuqur falsafiy tafakkur mevasi sifatida qaramoq lozim.

## XULOSA

"Sharq — insoniyatning beshigi va tabiatning hukmdoridir. Sharqda inson — tabiatning farzandi: u go'dak singari tabiatning bag'rida yotadi, keksayganida esa uning bag'rida vafot etadi. Sharq hamisha o'z hayotining asosiy qonuniga — tabiiylik va jonzotlarga yaqinlikka — sodiq bo'lib qoladi. Sharqdagi muhabbat o'zining namoyon bo'lishi bilan birlamchidir: u doimo tabiatdagi shahvoniylikni, ikki jins munosabatlarining hissiy istagini ifoda etgan" [2-146]

"Sharqona muhabbat, — deb xulosa qiladi V. G. Belinskiy jinlar o'rtasidagi tafovutga asoslanib, — bu poydevor haqiqat va sharqona muhabbatning yetishmasligi uning hissiyotdan boshlanishi emas, balki hissiyot bilan tugashi hamdir" [2-162]

Romantizm — nafaqat muhabbat mavzusi, balki insonning ichki dunyosi muhabbatdan kengroqdir, u yerdan "barcha mavhum intilishlar yaxshilik va ulug'vorlik sari ko'tariladi, xayolot orqali tug'ilajak barcha narsalar orqali ideallarda o'z ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi"[2-146]. Shunday ekan, "romantizm inson ma'naviy tabiatining abadiy ehtiyojidir" [2-159]

V. G. Belinskiyning fikriga ko'ra, romantizmning ahamiyatini to'g'ri aniqlash uchun uning tarixiy ahamiyatiga nazar tashlash lozim. "Romantizm — deb yozadi u, — bir davlat yoki davrning bisoti emas: u — inson qalbi va borlig'ining abadiy jihatidir". [2-173]

Belinskiy shu qarashlarni rivojlantirgan holda Sharq va yunon romantizmi, O'rta asrlar romantizmi va XIX asr boshlaridagi romantizmning ba'zi xususiyatlarini ifodalagan.

Garchi Belinskiyning Sharq romantizmiga oid qarashlarida yunon romantizmi muhokamasiga nisbatan ixchamlik va chuqur ifodalash bo'lmasa-da, u estetika tarixida Sharq romantizmini birinchilardan bo'lib muammo sifatida o'rta tashlagan mutafakkir hisoblanadi. Belinskiy nazarida Sharq doimo sirli va olis diyori bo'lgan, u Sharq shoirlarining o'ziga xos dunyoqarashini hissiy bilishga intilgan.

Sharq romantizmining mazmuni — ideallik, ya'ni Haqiqat, Kuch va Tinchlik g'alaba qozonadigan hayotdir. Ushbu og'riqli satrlarda ijtimoiy idealning dunyoviy xususiyati hamda Haqiqat va Tinchlik izlashning murakkab yo'li aks etgan. Haqiqat va Tinchlikka erishish uchun Sharq romantizmining ijtimoiy negizlari aynan shu voqelikning ifodasi sifatida namoyon bo'ldi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳамидулла Болтабоев, Маҳкам Маҳмудов. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1-жилд: Қадимги давр. — Т.: "MUMTOZ SO'Z", 2012.
2. Белинский В.Г. Полн. собр. соч. Т. VII. — М., 1955
3. Боров Ю.Б. Эстетика: Учебное пособие. 4-е издание, дополненное. — М.: Политиздат, 1988
4. Ҳуроқова О.Ж Шарқ ва Фарб романтизм эстетикасининг моҳияти. Т. Lesson press, 2021.
5. Авеста:энциклопедик луғат. Г. Т. Махмудова, М.М. Ишоқов, А.Х.Саидов ва бошқалар . – Т.: "NOSHIR", 2020.
6. Махмудова Г. Авестонинг фалсафий моҳияти . — Т.: "NOSHIR", 2015.
7. Роль искусства в процессе исторического формирования государственности Узбекистана. Сб. науч. статей. / Автор, сост. Отв ред. — Ташкент: Санъат, 2007.
8. Абдуллаев А. Жажда прекрасного: Воспоминания, статьи, выступления — Ташкент: КЮЖИ «Правда Востока», 1994.
9. Берковский Н.Я. О романтизме и его первоосновах // Проблемы романтизма. — М.: Искусство, 1971
10. Мегрон Л. Романтизм и нравы. — М.: Юрайт, 2019